



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MORFOLOGIK YO'L BILAN YASALGAN GEOGRAFIK TERMINLAR TAHLILI

Xabibulloyeva Gulchehra Komiljonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası o'qituvchisi

gulchehrahabilloyeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179613>

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografik terminlar va ayrim joy nomlarining morfologik usul orqali yasalgan turlariga urg'u berilgan. Garchi bu so'zlarni kundalik hayotimizda faol tarzda ishlatmasak-da, ularni adabiy tilda va ta'lim muassasalarida va qolaversa, boshqa jabhalarda ularga duch kelishimiz mumkin. Bu faol atama va toponimlarning kelib chiqishi va derivatsion usullari ko'plab olimlarni qiziqtirib kelgan va hozirgi kunda ham qiziqtirib kelmoqda.

Kalit so'zlar: toponim, faol atamalar, morfologik, affiksial, suffiks, prefiks, qo'shimcha.

Kirish qismi. Geografik atama va terminlar ko'plab olimlar va izlanuvchilarni o'ziga jalb qilib kelgan bo'lib, toponimlarni kelib chiqishi va yasalish usullari tilda va geografik sohada ko'p talqin etilgan. Bu yo'nalishlarda H.Hasanov, P.G'ulomov, M.Mirakmalov, M.Umarova va boshqa geograf olim va olimalar sermazmun ilm to'plashgan. Toponimlarning kelib chiqishi hududning geografik sharoiti, hudud hayvonot va o'simliklar dunyosi, etnik tarkib, kishilar ismlari va hatto suv bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Asosiy qism. Geografik atama va terminlarning kelib chiqishi esa aynan geografik terminlarga qo'shimcha va prefiks yoki suffikslar qo'shish orqali yasalishi mumkin. Ba'zi holatlarda ikki mustaqil so'z turkumi qo'shilmasidan ham joy nomlari hosil bo'lgan holatlar ham yo'q emas.

Morfologik (affiksial) usul – tildagi biror mavjud terminga bir va ba'zan bir necha so'z yasovchi affikslarning qo'shilishi bilan yangi termin yasaydi. Tilda ushbu holatni ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan, O'zbek tilida -kor affiksini kasb-hunar yasovchi qo'shimcha sifatida olsak, bu qo'shimcha yordamida **paxtakor**, **g'allakor** kabi so'zlarni yasashimiz mumkin.

Geografiya sohasida ham aynan shu kabi holatlar uchraydi, ya'ni geografik terminlarda ham bunday holatlar ko'p. Masalan, **tog'yonbag'ir**, **suvsizlik** kabi so'zlar bir necha affikslar orqali yasalsa, **qumlik**, **kenglik**, **cho'llashish** kabi so'zlar bitta qo'shimcha qo'shish orqali yasalishi mumkin. Ushbu misollar suffiks (so'zdan keyin qo'shiladigan qo'shimcha)larga yaqqol misol bo'la oladi. Ammo so'zdan oldin qo'shiladigan qo'shimchalar ham uchraydi, ya'ni prefiks (so'z oldi qo'shimchasi) bilan yasaladigan terminlar, masalan **beboyon**, **besarhad**, **sershamol**, **yarimorol**,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

bahavo, subtropik va boshqalar. Bu misollardagi aksariyat prefikslar (be-,ser-, ba-, prefikslar fors-tojik tillari ta'sirida O'zbek tilida saqlanib qolgan).

Xuddi geografik terminlardek joy nomlarida ham shunday joy nomlari yasaliş hodisasini kuzatishimiz mumkin. Masalan, Yurchi, Sho'rchi, Paxtachi, Baliqchi va boshqa joy nomlarida bir o'zak va bir qo'shimcha(prefiks) mavjud.

Ikki mustaqil so'z turkumi va o'zakdan iborat joy nomlari ham sanoqsiz bo'lib ularga misol qilib, Bobotog', Yakkabog', Toshkent, Munchoqtepa, Jarqo'rg'on va boshqa joy nomlarini olishimiz mumkin. Qolaversa, ikki mustqail so'z qo'shilmasidan hosil bo'lgan so'zlar ham uchraydi, masalan, biomassa, biogas va hokazo.

Ayrim joy nomlarining esa morfemalarida rang, suv va raqamlarni ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Beshkappa, Uchko'prik, Qizilsuv, Qorako'l, Qorasuv, Issiqko'l, Qoradaryo va hokazolar.

Xulosa. Ushbu geografik atama va terminlar, toponimlarning yasaliş turlari - semantik, leksik-semantik, morfologik va kompozitsion usullarga bo'linsa-da, aynan morfologik usul orqali yasalgan usullari og'zaki nutqda juda faol bo'lib, bu toponim va terminlar kelib chiqishida xalq va joyning ahamiyati katta hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xo'shbaqova, N. (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YO'L BELGILARIGA OID TERMIN BIRIKMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATI. TAMADDUN NURI JURNALI, 11(62), 251-253
2. Komiljonovna, K. G. (2025, February). THE USAGE OF PHRASEOLOGICAL AND IDIOMATIC UNITS IN THE NOVEL "THE WHITE SHIP" BY CHINGIZ AITMATOV. In The Conference Hub (pp. 30-33).
3. Турдалиева, Ш. (2024). АНАЛИЗ ГИБРИДНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: КОМПЛЕКСНАЯ ПЕРСПЕКТИВА. Предпринимательства и педагогика, 3(3), 24-29.
4. Khabibulloeva, G. (2025). THE IMPORTANCE OF TEACHING GEOGRAPHY AT THE PRIMARY SCHOOLS. TAMADDUN NURI JURNALI, 1(64), 83-85.
5. P.G'ulomov, M.Mirakmalov TOPONIMIKA VA GEOGRAFIK TERMINSHUNOSLIK, Toshkent-2005 35-37 b.b.
6. M. Umarova Surxondaryo viloyati toponimlarini o'rganishning geografik jihatlarini. Monografiya. Toshkent Innovatsiya – Ziyo 2020.